

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.09/2025.27.12.T.02.01.M RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

URUNBAYEV JASUR ERKINOVICH

**KO'P KOMPLEMENTLI MUHITLARDA KROSS-DIFFUZIYAGA EGA
JARAYONLARNI TADQIQ QILISH**

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

**Оглавление автореферата диссертации
доктора наук (DSc) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract for Doctor of Sciences (DSc)
on technical sciences**

Urunbayev Jasur Erkinovich

Ко‘п компонентли muhitlarda kross-diffuziyaga ega jarayonlarni tadqiq qilish
.....3

Урунбаев Жасур Эркинович

Исследование процессов с кросс-диффузией в многокомпонентных средах
.....27

Urunbaev Jasur Erkinovich

Study of cross-diffusion processes in multicomponent media
.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....57

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.09/2025.27.12.T.02.01.M RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

URUNBAYEV JASUR ERKINOVICH

**KO'P KOMPLEMENTLI MUHITLARDA KROSS-DIFFUZIYAGA EGA
JARAYONLARNI TADQIQ QILISH**

05.01.07 – Matematik modellashtirish. Sonli usullar va dasturlar majmui

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.DSc/T848 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.airi.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Raxmonov Zafar Ravshanovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Aripov Mersaid Mirsiddikovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xujayev Ismatulla Kushayevich
texnika doktori, professor

Eshmatov Baxtiyor Xasanovich
fizika-matematika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

Dissertatsiya himoyasi Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.09/2025.27.12.T.02.01.M raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “07” iyul soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100125, Toshkent shahri, M. Ulug‘bek tuman, Bo‘z-2 mavzesi, 17A uy. Tel.: (+99871) 263-41-98; e-mail: info@airi.uz).

Dissertatsiya bilan Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (22-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100125, Toshkent shahri, M. Ulug‘bek tuman, Bo‘z-2 mavzesi, 17A uy. Tel.: (+99871) 263-41-98; e-mail: info@airi.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “24” iyul kunida tarqatildi.
(2026-yil “15” iyun dagi 17 raqamli reestr bayonnomasi.)



N.Ravshanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

F.M.Nuraliyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, professor

E.Sh.Nazirova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda diffuziya jarayonlari tenglamalari va ularning sistemalariga bag‘ishlangan tadqiqotlar dolzarb va zarur hisoblanib, keng miqyosda olib borilgan tadqiqotlar biologiya, kimyo, fizika, texnologiya, biofizika va ilm-fanning boshqa qator sohalarida tatbiq etiladi. Diffuziya jarayonlarining matematik modellari nochiziqli xususiy hosilali differensial tenglamalar sistemasi bilan tavsiflanadi va seysmologiya, nochiziqli to‘lqinlar nazariyasi, epidemiya tarqalishi, biologik populyatsiya, taksis to‘lqinlari, filtratsiya va boshqa sohalarining tadqiqot predmeti hisoblanadi. Shuning uchun ko‘p komponentli muhitda diffuziyaning nochiziqli matematik modellarini o‘rganish, ularni yechishning samarali sonli sxemalari va algoritmlarini qurish hamda dasturiy ta‘minotini yaratish amaliy matematikaning muhim vazifalari bo‘lib qolmoqda.

Dunyoning yetakchi ilmiy maktablarida nochiziqli chegaraviy shartlarga ega parabolik tenglamalar sistemalari yordamida tasvirlangan kross-diffuziyaga ega matematik modellar keng o‘rganilmoqda. Kross-diffuziya jarayonlarining matematik modellari biofizikada morfogenezing biofizik mexanizmlarini tavsiflash, biologik populyatsiya jarayonlari, issiqlik uzatish va filtrlash modellarini qurish, tektonik plitalarning o‘zaro ta‘sirini o‘rganish uchun keng qo‘llaniladi. Shuning uchun kross-diffuziya sistemalarini sonli va analitik yechish usullarini ishlab chiqish maqsadli ilmiy tadqiqot yo‘nalishi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida energiya samaradorligi va resurslardan oqilona foydalanish milliy strategiyaning ajralmas qismi bo‘lib, turli texnikalarning energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni belgilovchi hujjatlar qabul qilinmoqda. Xususan, “O‘zbekiston – 2030” yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “ ... Fundamental tadqiqotlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangi yo‘nalishlar bilan boyitish, ... Iqtisodiyotning eng tez o‘sib borayotgan yo‘nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, “korxonalar – oliygoh – ilmiy tashkilot” klaster tizimini joriy etish, ... Yosh tadqiqotchilarning ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash, ... Sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish, ... “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish, uning asosi bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish ko‘rsatkichlarini keskin oshirish, ... Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta‘sirini yumshatish”¹ kabi vazifalarning qo‘yilishi davlatimiz tomonidan issiqlik va energiya tejamkorlik masalalariga muhim e‘tibor qaratilganidan dalolat beradi. Bugungi kunda issiqlik-namlik almashinuvi kabi jarayonlarning nochiziqli masalalarini yechish, matematik modellashtirish, matematik modellari uchun sonli va analitik usullarni ishlab chiqish, olingan natijalarni amaliyotiga keng joriy etishda sezilarli natijalarga erishildi. Yechimni amalga oshirilishini ta‘minlashda parabolik tenglamalar sistemasi orqali ifodalangan tabiiy jarayonlarning nochiziqli matematik

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 – yil 16 – fevraldagi № PF – 21 – sonli “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni

modellarini qurish, sonli hisoblash usullarini ishlab chiqish va takomillashtirish katta ahamiyatga ega.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-sonli "2022–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida" Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 oktyabrdagi "Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va axborot texnologiyalari sohasi bilan integratsiyalashuv chora-tadbirlari to‘g‘risidagi" PQ-4851-sonli, 2022 yil 6 iyuldagi PQ-307-sonli "2022–2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida", 2022 yil 18 maydagi PQ-246-sonli "Xalqaro reytinglar va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat va amaliy faoliyat o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida" va 2023 yil 20 apreldagi PQ-128-sonli "Ilmiy, metodologik va ilmiy-tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" Qarorlari hamda ushbu sohada qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning IV. "Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni rivojlantirish" ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi yuzasidan chet el ilmiy tadqiqotlari tahlili². Turli nohiziqli matematik modellarning sifat xossalarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi tadqiqot markazlari va oliy o‘quv yurtlarida, jumladan, Shimoliy Karolina shtati universiteti, Ayova shtati fan va texnologiya universiteti, Markaziy Florida universiteti, Luiziana shtati universiteti, Kaliforniya shtati universiteti (AQSh), Buenos-Ayres universiteti (Argentina), Saits-Ayres universiteti (Argentina), Saitpiya universiteti (University), Chili Universiteti (Chili), Cataniya universiteti (Italiya), Osaka, Nagoya, Xirosima universitetlari (Yaponiya), Singapur Milliy universiteti (Singapur), Madrid avtonom universiteti, Madridning Komplutense universiteti (Ispaniya), Paderborn universiteti, Aachen universiteti (Germaniya), Nottingem universiteti (Angliya), Jilin, Chongqing, Changchun universiteti (Xitoy), Parij matematika markazi, Dofin PCL universiteti (Frantsiya), Rossiya Fanlar akademiyasi Matematika instituti, Moskva davlat universiteti (Rossiya), Vengriya Fanlar akademiyasining Kompyuter fanlari va avtomatlashtirish instituti (Vengriya), Qozog‘iston Milliy universiteti (Qozog‘iston), T.Shevchenko nomidagi Lugansk Milliy universiteti (Ukraina), Matematika va informatika instituti, Sofiya universiteti (Bolgariya), O‘zbekiston

²Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalarga asoslanadi: Journal of Computational Mathematics and Mathematical Physics, Mathematical Modeling, Communications on Pure and Applied Analysis, Journal of the Korean Mathematical Society, <http://www.springer.com/mathematics>; <http://www.sciencedirect.com/science/jrnallbooks/sub/mathematics>.

Milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy tadqiqot instituti (O'zbekiston) va boshqalarda olib borilmoqda.

Chiziqli modellarning xususiyatlaridan farq qiladigan yangi sifat xususiyatlarini yaxshilash bo'yicha jahon tadqiqotlari natijasi sonli yechish va vizuallashtirish usullarini ishlab chiqish bo'lib, bir qator ilmiy natijalarga erishilgan, shu jumladan nochiziqli parabolik tenglamalar bilan tavsiflanadigan issiqlik o'tkazuvchanlik modellari uchun global yechim mavjudlik shartlari va Neyman masalasini yechish (Madrid avtonom universiteti, Osaka, Nagoya universiteti), nochiziqli parabolik tenglamalar uchun Fujita tipidagi yechimning global mavjudligining kritik ko'rsatkichi qiymatlari topilgan (Madrid komplutens universiteti, Paderborn, Jilin, Chongqing, Changchun universitetlari), ikkinchi kritik va dastlabki ma'lumotlarni aniqlash usullari ishlab chiqilgan. G'ovak muhit tenglamalari va gradiyent nochiziqli tenglamalar uchun Koshi masalasi ishlab chiqilgan (Sapienza Università di Roma, Chongqing, Osaka universitetlari).

Dunyoda Koshi va chegaraviy masalalarni yechish hamda amaliy qo'llash usullari va vositalarini ishlab chiqish bo'yicha turli matematik modellarning asosini tashkil etuvchi parabolik tipdagi nochiziqli tenglamalari uchun ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan: nochiziqli masalalarda global yechimning vaqt bo'yicha mavjudligi shartlarini topish; global yechim va Fujita tipining mavjudligining kritik ko'rsatkichi qiymatlarini topish; cheksiz yechimlarni lokallashtirish shartlarini aniqlash; sonli usullar samaradorligini oshirish; nochiziqli matematik modellarning yuqoridagi xossalari asosida nochiziqli jarayonlarni sonli yechishni tadqiq qilish imkonini beruvchi dasturlar majmuasini ishlab chiqishdan iborat.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zgaruvchan zichlikka ega hamda ko'p komponentli muhitlarda kross-diffuziyaga asoslangan issiqlik tarqalish jarayonlarini matematik modellashtirish nazariyasi ilmiy adabiyotlarda bir qator fundamental natijalar yoritilgan. Mazkur yo'nalish XX asr oxiri va XXI asr boshlarida jadal rivojlangan bo'lib, jarayonlarning nochiziqiligi, komponentlararo o'zaro ta'sir, zichlikning fazo-vaqt bo'yicha o'zgarishi, adveksiya-diffuziya sinergetikasi hamda termodiffuziya effektlarini hisobga oluvchi modellar keng o'rganilgan. Jumladan, J.L.Vaskes, X.A.Levin, A.A.Samarskiy, A.S.Kalashnikov, V.A.Galaktionov, A.F.Tedeev, A.R. Mixaylov, S.Shigesada, K.Kawasaki, V.A.Grigorev, V.S.Kurdyumov, M.A.Siganov, A.Ye.Axromeyev, A.V.Likov, D.P.Juxovitskiy, S.P.Kurdyumov, G.G.Malinetskiy, Yu.P.Popov, Yu.A.Chudnovskiy, J.Smoller, A.Friedman, R.Showalter, H.Amann, E.DiBenedetto, P.Bothe, A.Mielke, T.Suzuki, K.Osaki, A.Jünger va boshqalarning asarlarida nochiziqli issiqlik o'tkazuvchanlik, ko'p komponentli muhitlarda diffuziya tenglamalari, chegaraviy masalalar uchun klassik asoslar, o'zgaruvchan zichlikka ega va o'zgaruvchan issiqlik sig'imli muhitlarda nochiziqli issiqlik tarqalishi, blow-up yechimlar, kross-diffuziya, taksis, ko'p komponentli kross ta'sirli sistemalar, populyatsion va fizik jarayonlardagi kross-diffuziya modellari, issiqlik-namlik almashinuv modellarida zichlik, namlik va issiqlikning kross-diffuziyasi, murakkab muhitlarda nochiziqli sinergetika issiqlik-diffuzion

jarayonlarning avtomodel yechimlari, issiqlik bilan bog‘liq Soret–Dufour effektlari ko‘p fazali muhitlarda termodiffuziya yechimlarning cheksizligi, chekli tarqalish tezligi va buzilishlarning fazoviy lokalizatsiyasi ta’siri, vaqt strukturasi va lokal chegarasining mavjudligi, manba va yutilish hisobga olganda chiziqli bo‘lmagan muhit kabilar aniqlangan.

Ya.B.Zeldovich, A.S.Kompaneets, G.I.Barenblatt, R.E.Pattle asarlarida, chiziqli bo‘lmagan muhitda issiqlik buzilishlari, tarqalishning cheklangan tezligining noxiziq ta’siri birinchi marta kashf etilgan. Cheklangan tezlik effektining paydo bo‘lish shartini aniqlash, g‘ovak muhitda va noxiziq gradiyent issiqlik tenglamasi uchun Koshi masalasini yechimlarni baholash J.L.Vazquez tomonidan o‘rganilgan. M.Herrero, M.Fila, F.Quiros, R.Gillermo, Keng Deng, Julio D. Rossi, P.Groisman, D.Andreuchchi, A.Tesei, R.Ferreya, A.D.Pablo, H.Fujita, vaqt bo‘yicha asimptotik yechimlar turg‘unligi bo‘yicha, X.Y.Chen, H.Matano, M.Sugimoto, Jon King, A.P.Mixaylov, V.A.Galaktionov, E.Kurkina, politropik filtratsiyaning uzluksiz bo‘lmagan parabolik kvazichiziqli tenglamalar uchun Neyman chegaraviy masala bilan tavsiflanuvchi matematik modellarning xossalarini aniqlash, H.A.Levine, M.Chunlai, W.Du, J.Yin, Y.Wang, M.X.Wang, Z.Xiang, M.Yongsheng, S.N.Zheng, X.F.Song, Z.X.Jiang, Maykl Vinkler o‘zgaruvchan zichlikdagi issiqlik o‘tkazuvchanligining noxiziq tenglamalari, reaksiya-diffuziya va filtratsiya uchun Koshi masalasining global yechimlari va vaqt bo‘yicha blow-up shartlarini o‘rganish bo‘yicha Z.Li, M.Chunlai, V.Du, Guirong Liu, Yuan-Vey Qi, A.F.Tedeev, A.V. Martinenko, N.V.Afanasyeva, S.P.Degtyarevlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

O‘zbekistonda turli xil diffuzion jarayonlarni ifodalaydigan noxiziq diffuziya tenglamalari va ularning sistemalari bilan N.M.Muhitdinov, M.M.Aripov, F.B.Abutaliyev, B.X.Xo‘jayorov, A.S.Rasulov, N.Ravshanov, I.K.Xo‘jayev, Ch.B.Normurodov, N.Uteuliyev, Z.R.Raxmonov, Sh.A.Sadullayeva, A.S.Matyakubov, E.Sh.Nazirova va boshqa olimlar shug‘ullanishgan. Ularning asosiy ishlari noxiziq diffuziya tenglamalar sistemasini yechish masalasini sonli tadqiq etishga bag‘ishlangan bo‘lib, kross-diffuziya, filtratsiya, issiqlik o‘tkazuvchanlik, biologik populyatsiya jarayonlarini modellashtirish masalalariga tatbiq etish mumkin. M.M.Aripov va uning shogirdlari ishlarida noxiziq masalalarni tadqiq etishning samarali usullari sifatida noxiziq ajratish va etalon tenglamalar usullari asoslangan. Noxiziq chegaraviy shartlar bilan berilgan kross-diffuziya sistemalarini modellashtirish, blow-up yechimlar va global yechimlarning mavjud shartlarini aniqlash bo‘yicha olingan natijalar hamda mavjud usul va algoritmlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, noxiziq jarayonlarni modellashtirish sohasidagi nazariy va amaliy masalalarni yanada chuqurroq va to‘liq tadqiq etish usullarini ishlab chiqishni talab etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy tadqiqot institutining A-OT-2021-108 sonli “Orolbo‘yi mintaqasi atrof-muhitining ekologik holatini monitoring qilish va bashorat qilishning axborot-tahlil tizimini ishlab chiqish” (2021-2023 yillar) loyihasi hamda institutining ilmiy-

tadqiqot ishlari rejasining №19.12 “Muhandislik va tabiiy jarayonlarning, matematik modellarini tuzish va sonli tadqiq qilish” (2024 yil) doirasidagi ilmiy tadqiqot rejalari asosida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi ko‘p komponentli g‘ovak muhitlarda kross-diffuziyaga ega issiqlik va namlik ko‘chishi jarayonlarini tahlil qilish hamda bashoratlash uchun nohiziqli matematik modellarini, hisoblash algoritmlarini va muammoga yo‘naltirilgan dasturiy ta‘minotni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

ko‘p komponentli g‘ovak muhitlarda sodir bo‘ladigan, kross-diffuziyaga ega issiqlik va namlik ko‘chishining nohiziqli texnologik jarayonlari matematik modellarni ishlab chiqish;

tadqiq etilayotgan jarayonlarning aniqlangan asimptotikasi va avtomodel yechimlarni analitik qurish asosida iteratsion to‘r usullari uchun yuqori aniqlikdagi adaptiv boshlang‘ich yaqinlashishlarni sintez qilish usulini ishlab chiqish;

ko‘p o‘lchovli chegaraviy masalalarni nazariy asoslash hamda ishlab chiqilgan modellar uchun turg‘unlik sohalari va korrektiligining parametrik chegaralarini aniqlash;

o‘zgaruvchan zichlikka ega ko‘p o‘lchovli manbalarni hisobga olgan holda, kross-diffuziyaga ega issiqlik va namlik ko‘chishining kuchli nohiziqli parabolik tenglamalar sistemalarini yechish uchun konservativ oshkormas chekli-ayirmali sxemalarni qurish hamda hisoblash jihatidan turg‘un algoritmlarni ishlab chiqish;

ko‘p komponentli g‘ovak muhitlarda kross-diffuziyaga ega issiqlik va namlik ko‘chishi jarayonlarini hisoblash tajribalari orqali tadqiq etish, maydonlar dinamikasini vizuallashtirish, tahlil qilish va bashoratlash uchun muammoga yo‘naltirilgan dasturiy majmuani ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti qurilish materiallari va mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida ko‘p komponentli g‘ovak muhitlarda kross-diffuziyaga ega issiqlik va namlik ko‘chishi texnologik jarayonlari olinangan.

Tadqiqot predmeti ko‘p komponentli g‘ovak muhitlarda kross-diffuziyaga ega murakkab nohiziqli issiqlik va namlik ko‘chish jarayonlarini sonli tadqiq etish, tahlil qilish va bashoratlash uchun mo‘ljallangan ko‘p o‘lchovli matematik modellar, konservativ ayirmali sxemalarga asoslangan hisoblash algoritmlari hamda dasturiy vositalardan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida murakkab tizimlarni matematik modellashtirish usullari, avtomodel yechimlarni qurish metodlari, asimptotik tahlil va aprior baholash usullari, xususiy hosilali differensial tenglamalarni chekli-ayirmali sxemalar asosida diskretlash usullari, chiziqilashtirish va iteratsion usullar, shuningdek parametrik hisoblash tajribalarini o‘tkazish uchun dasturlash texnologiyalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nohiziqli chegaraviy shartlar asosida kross-diffuziya effektlarini hisobga olgan holda ko‘p komponentli muhitlarda o‘zaro bog‘liq issiqlik va namlik ko‘chishining matematik modeli ishlab chiqilgan;

ikki karra nochiziqli diffuziya tenglamalar sistemalarini sonli yechish uchun analitik asimptotik yoyilmalardan adaptiv boshlang'ich yaqinlashish sifatida foydalanishga asoslangan modifikatsiyalangan iteratsion usul ishlab chiqilgan;

issiqlik va namlik ko'chishi masalalarining global yechimga ega bo'lishining kritik ko'rsatkichlari aniqlangan;

o'zgaruvchan zichlikka ega sistemalar uchun issiqlik va namlik maydonlarining fazo-vaqt bo'yicha o'zgarishiga nisbatan ikki tomonlama analitik baholar olingan;

konservativ oshkormas ayirmali sxemalar usuliga asoslangan samarali hisoblash algoritmlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

olingan avtomodel yechimlar asimptotikalariga asoslanib, sonli moslashuvchan sxemalari uchun yuqori aniqlikka ega adaptiv boshlang'ich yaqinlashishlarni sintez qilish metodikasi ishlab chiqilgan;

nochiziqli chegaraviy shartlarga ega ko'p o'lchovli issiqlik va namlik ko'chish jarayonlari uchun kritik texnologik parametrlar (turg'unlik chegaralari) aniqlanib, ko'p komponentli sanoat materiallariga xavfsiz termik ishlov berishni ta'minlash imkoniyati asoslangan;

muammoga yo'naltirilgan dasturiy majmua ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan bo'lib, uning asosida Samarqand viloyati korxonalarida qurilish materiallari va buyumlarini ishlab chiqarish jarayonlarini baholash hamda optimallashtirish bo'yicha hisoblash tajribalari o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning ishonchliligi dissertatsiya ishida olingan tasdiqlar solishtirish teoremlari va maksimum prinsipi asosida qat'iy isbotlanganligi hamda hisoblash eksperimenti natijalari bilan tasdiqlanganligi, olingan natijalarning saqlanish qonunlariga muvofiqligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ular yangi konservativ ayirmali sxemalar, takomillashtirilgan iteratsion hisoblash algoritmlari hamda asimptotik tahlil usullari hisobiga kross-diffuziyaga ega murakkab nochiziqli issiqlik va namlik ko'chish sistemalarini matematik modellashtirish va sonli tadqiq etishning nazariy hamda metodologik bazasini ma'lum darajada kengaytiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan matematik apparat va dasturiy majmua ko'p komponentli g'ovak muhitlarda kross-diffuziyaga ega issiqlik va namlik ko'chish jarayonlarini tahlil qilish va bashoratlashning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi, shuningdek qurilish materiallari va mahsulotlari ishlab chiqarishning texnologik rejimlarini optimallashtirish, jumladan namlanish, quritish, issiqlik izolyatsiyasi jarayonlarini oldindan baholash hamda mahsulotlarning strukturaviy turg'unligini oshirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ko'p komponentli g'ovak muhitlarda kross-diffuziyaga ega issiqlik va namlik ko'chish jarayonlarini tahlil qilish hamda bashoratlash uchun ishlab chiqilgan matematik modellar, hisoblash algoritmlari va dasturiy ta'minot asosida:

kross-diffuziya sistemalarini sonli yechish algoritmlari va dasturidan “Jomboy yashil chiroqlari” mas’uliyati cheklangan jamiyatida ilmiy tadqiqot natijalari va ishlab chiqilgan dasturiy ta’minotdan foydalanish sanoat amaliyotida sement pastasidagi issiqlik va namlik almashinuvini tavsiflash uchun kross-diffuziya tenglamalari sistemasiga asoslangan matematik modellardan foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 22 oktyabrdagi 34-8/7652-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan kross-diffuziya tenglamalari sistemasiga asoslangan matematik model va uni sonli yechish algoritmlari sement pastasidagi issiqlik–namlik almashinuvining real fizik jarayonlarini ishonchli tarzda tavsiflash imkonini berdi;

ishlab chiqilgan kross-diffuziyaga ega issiqlik-namlik jarayoni tenglamalari sistemasiga asoslangan model orqali “U-Z Bunyodkor Groups” mas’uliyati cheklangan jamiyatida ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanish asosida qurilishda qo‘llaniladigan gazobeton (gazosilikat) bloklarni ishlab chiqarish jarayonida xomashyolarning miqdoriy qo‘shimchalari, ularning konsentratsiyasi va kimyoviy reaksiyaga kirishish jarayonlari o‘rtasida yuzaga keladigan kross-diffuziya hodisalari matematik modellar yordamida tavsiflangan (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 22 oktyabrdagi 34-8/7652-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ishlab chiqarish jarayonida energiya va xomashyo sarfini kamaytirish, nuqsonli mahsulot ulushini qisqartirishga erishilgan;

ishlab chiqilgan matematik modellarni muvaffaqiyatli qo‘llash imkonini beruvchi boshlang‘ich yaqinlashish uchun asimptotik formulalar sonli algoritmlari asosida yaratilgan dasturiy majmua Samarqand viloyatidagi IT Park Samarqand filialida ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanish asosida yaratilgan matematik modellarni samarali sonli yechish algoritmlari sinovdan o‘tkazilgan (O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining 2025-yil 22 oktyabrdagi 34-8/7652-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan matematik modellar, asimptotik formulalar va dasturiy vositalarning sanoat va ilmiy-amaliy muammolarni hal etishda yuqori samaradorligi tajribaviy sinovlar orqali asoslangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 10 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarini e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 28 ta ilmiy ishlar, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 13 ta ilmiy maqola, shu jumladan, 9 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda 2 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy mahsulotlarni qaydlash guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, besh bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 200 bet iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining O‘zbekiston Respublikasi fani va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mos ravishda dolzarbligi va

zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqotning obykti va predmeti ko'rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyatlari ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish holatlari, shuningdek, tadqiqot natijalarining chop etilganligi hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining “**Kross-diffuziyaga ega jarayonlarining matematik modellari**” deb nomlangan birinchi bobida kross-diffuziyaga ega jarayonlar matematik modellarini tadqiq qilishga oid mavjud ilmiy ishlar sharhi tahlil qilingan.

Birinchi bobning asosiy natijalarini keltiramiz.

1.3 – paragraf quyidagi nochiziqli chegaraviy shartlarga ega bo'lgan nochiziqli ko'p o'lchovli parabolik tenglamalar sistemasi yechimlarining xossalari ko'rib chiqamiz:

$$u_t = \nabla \left(|\nabla u|^{p_1-2} \nabla u \right), x \in R_+^N, t > 0, v_t = \nabla \left(|\nabla v|^{p_2-2} \nabla v \right), x \in R_+^N, t > 0, \quad (1)$$

$$-|\nabla u|^{p_1-2} \frac{\partial u}{\partial x_1} \Big|_{x_1=0} = v^{q_1}(0,t), -|\nabla v|^{p_2-2} \frac{\partial v}{\partial x_1} \Big|_{x_1=0} = u^{q_2}(0,t), t > 0, \quad (2)$$

$$u(x,0) = u_0(x), v(x,0) = v_0(x), x > 0, \quad (3)$$

bu yerda $R_+^N = \{(x_1, x') \mid x' \in R^{N-1}, x_1 > 0\}$, $p_i > 2$, $q_i > 0 (i=1,2)$, R_+^N da $u_0(x)$ va $v_0(x)$, kompakt yurituvchili, musbat, uzluksiz funksiyalar, $u_0(x)$ issiqlik tarqalishi, $v_0(x)$ namlik tarqalishidir.

(1) sistema (2) va (3) chegaraviy shartlar asosida kross holatni vujudga keltiruvchi issiqlik-namlik almashinuv jarayonini ifodalaydi.

1-teorema. Agar $q_1 q_2 \leq \frac{4(p_1-1)(p_2-1)}{p_1 p_2}$ shart o'rinli bo'lsa, (1)-(3) masalaning yechimi global bo'ladi.

2-teorema. Agar $q_1 q_2 > \frac{4(p_1-1)(p_2-1)}{p_1 p_2}$ va boshlang'ich shart yetarlicha katta bo'lsa (1)-(3) masalaning yechimi chegaralanmagan bo'ladi.

3-teorema. Agar $q_1 q_2 > \frac{4(p_1-1)(p_2-1)}{p_1 p_2}$, $\min\{N\beta_1 - \alpha_1, N\beta_2 - \alpha_2\} > 0$ va dastlabki shartlar yetarlicha kichik bo'lsa, u holda (1)-(3) masalaning yechimi globaldir.

4-teorema. $q_1 q_2 > \frac{4(p_1-1)(p_2-1)}{p_1 p_2}$, $\max\{N\beta_1 - \alpha_1, N\beta_2 - \alpha_2\} < 0$ bo'lsa, u holda har qanday manfiy bo'lmagan notrivial (1)-(3) masalani yechimi chekli vaqtda chegaralanmagan (blow-up) bo'ladi.

(1) sitemaning quyidagi ko'rinishga ega kompakt yurituvchili avtomodel yechimini qaraymiz

$$u_+(x,t) = (T+t)^{-\alpha_1} \varphi(\xi), v_+(x,t) = (T+t)^{-\alpha_2} \phi(\eta), \quad (4)$$

bu yerda $\xi = |\zeta|$, $\zeta_1 = (x_1 + h_1)(T + t)^{-\beta_1}$, $\zeta_i = x_i(T + t)^{-\beta_i}$, $\eta = |\theta|$,
 $\theta_1 = (x_1 + h_2)(T + t)^{-\beta_2}$, $\theta_i = x_i(T + t)^{-\beta_i}$, $(i = 2, \dots, N)$, $T > 0$ va $(\varphi(\xi), \phi(\eta))$
 funksiyalar quyidagi masalaning yechimi hisoblanadi

$$\begin{cases} \xi^{1-N} \frac{d}{d\xi} \left(\xi^{N-1} \left| \frac{d\varphi}{d\xi} \right|^{p_1-2} \frac{d\varphi}{d\xi} \right) + \beta_1 \xi \frac{d\varphi}{d\xi} + \alpha_1 \varphi = 0, \\ \eta^{1-N} \frac{d}{d\eta} \left(\eta^{N-1} \left| \frac{d\phi}{d\eta} \right|^{p_2-2} \frac{d\phi}{d\eta} \right) + \beta_2 \eta \frac{d\phi}{d\eta} + \alpha_2 \phi = 0, \end{cases} \quad (5)$$

$$\begin{cases} - \left| \frac{d\varphi}{d\xi_1} \right|^{p_1-2} \frac{d\varphi}{d\xi_1} \Big|_{\xi_1=h_1} = \phi^{q_1}(h_2), \\ - \left| \frac{d\phi}{d\eta_1} \right|^{p_2-2} \frac{d\phi}{d\eta_1} \Big|_{\eta_1=h_2} = \varphi^{q_2}(h_1). \end{cases} \quad (6)$$

Quyidagi funksiyalarni qaraymiz

$$\tilde{\varphi}(\xi) = \left(a_1 - b_1 \xi^{\frac{p_1-1}{p_1-2}} \right)^{\frac{p_1-1}{p_1-2}}, \quad \tilde{\phi}(\eta) = \left(a_2 - b_2 \eta^{\frac{p_2-1}{p_2-2}} \right)^{\frac{p_2-1}{p_2-2}}, \quad (7)$$

bu yerda $a_i > 0 (i = 1, 2)$, shunda quyidagi teorema o‘rinli.

5-teorema. $\xi \rightarrow (a_1 / b_1)^{\frac{p_1-1}{p_1}}$, $\eta \rightarrow (a_2 / b_2)^{\frac{p_2-1}{p_2}}$, bo‘lganda, (5),(7) sistemaning yechimi kompakt yurituvchili quyidagi asimptotikaga ega

$$\varphi(\xi) = \tilde{\varphi}(\xi)(1 + o(1)), \quad \phi(\eta) = \tilde{\phi}(\eta)(1 + o(1)).$$

1.4 – paragrafda nochiziqli chegaraviy shartlarga ega bo‘lgan ikki karra nochiziqli ko‘p o‘lchovli diffuziya tenglamalar sistemasi yechimlari baholari va sonli yechish sxemalarini ko‘rib chiqamiz.

$$u_t = \nabla \left(|\nabla u^{m_1}|^{p_1-2} \nabla u^{m_1} \right), \quad v_t = \nabla \left(|\nabla v^{m_2}|^{p_2-2} \nabla v^{m_2} \right), \quad x \in R_+^N, \quad t > 0, \quad (8)$$

$$\begin{aligned} -|\nabla u^{m_1}|^{p_1-2} \frac{\partial u^{m_1}}{\partial x_1} &= u^{\beta_1}(0, t) v^{q_1}(0, t), \\ -|\nabla v^{m_2}|^{p_2-2} \frac{\partial v^{m_2}}{\partial x_1} &= v^{\beta_2}(0, t) v^{q_2}(0, t), \quad x_1 = 0, t > 0, \end{aligned} \quad (9)$$

$$u(x, 0) = u_0(x), x > 0 \quad v(x, 0) = v_0(x), x > 0 \quad (10)$$

bu yerda $R_+^N = \{(x_1, x') | x' \in R^{N-1}, x_1 > 0\}$, $m_i > 1$, $p_i > 1 + \frac{1}{m_i}$, $\beta_i > 0$, $q_i > 0 (i = 1, 2)$,

R_+^N da $u_0(x)$ va $v_0(x)$ kompakt yurituvchili musbat uzluksiz funksiyalar, $u_0(x)$ issiqlik tarqalishi, $v_0(x)$ namlik tarqalishidir.

6-teorema. Faraz qilaylik, $\beta_1 \leq \frac{(p_1-1)(m_1+1)}{p_1}$, $q_1 \leq \frac{(p_2-1)(m_2+1)}{p_2}$ bo'lsin. Agar $q_1\beta_1 \leq \left(\frac{(p_1-1)(m_1+1)}{p_1} - \beta_1\right) \times \left(\frac{(p_2-1)(m_2+1)}{p_2} - q_2\right)$ bo'lsa, u holda (8)-(10) sistemaning har bir yechimi vaqt bo'yicha global mavjud bo'ladi.

7-teorema. Faraz qilaylik $\beta_1 \leq \frac{(p_1-1)(m_1+1)}{p_1}$, $q_1 \leq \frac{(p_2-1)(m_2+1)}{p_2}$ va $q_1\beta_2 \leq \left(\frac{(p_1-1)(m_1+1)}{p_1} - \beta_1\right) \times \left(\frac{(p_2-1)(m_2+1)}{p_2} - q_2\right)$ bo'lsin. Agar $\min\{N\lambda_1 - \alpha_1, N\lambda_2 - \alpha_2\} > 0$ va boshlang'ich shart yetarlicha kichik bo'lsa (8)-(10) sistemaning yechimi global bo'ladi.

8-teorema. Faraz qilaylik, $\beta_1 \leq \frac{(p_1-1)(m_1+1)}{p_1}$, $q_1 \leq \frac{(p_2-1)(m_2+1)}{p_2}$, agar $q_1\beta_2 \leq \left(\frac{(p_1-1)(m_1+1)}{p_1} - \beta_1\right) \times \left(\frac{(p_2-1)(m_2+1)}{p_2} - q_2\right)$ bo'lsa, u holda (8)-(10) sistemaning yechimlari yetarlicha katta boshlang'ich qiymatlar berilganda cheklangan vaqt ichida blow-up bo'ladi.

9-teorema. Faraz qilamiz $\beta_1 \leq \frac{(p_1-1)(m_1+1)}{p_1}$, $q_1 \leq \frac{(p_2-1)(m_2+1)}{p_2}$, $q_1\beta_2 \leq \left(\frac{(p_1-1)(m_1+1)}{p_1} - \beta_1\right) \times \left(\frac{(p_2-1)(m_2+1)}{p_2} - q_2\right)$. Agar $\min\{N\lambda_1 - \alpha_1, N\lambda_2 - \alpha_2\} > 0$ u holda (8)-(10) ning har bir manfiy bo'lmagan notrivial yechimi chekli vaqt ichida blow-up bo'ladi.

(8)-(10) masalalarning global yechilishini chegaralangan super yechimni qurish orqali ko'rsatamiz.

$$u_+(x, t) = (T+t)^{-\alpha_1} \varphi(\xi), v_+(x, t) = (T+t)^{-\alpha_2} \phi(\eta), \quad (11)$$

bu yerda $\xi = |\zeta|$, $\zeta_1 = (x_1 + h_1)(T+t)^{-\lambda_1}$, $\zeta_i = x_i(T+t)^{-\lambda_1}$, $\eta = |\theta|$, $\theta_1 = (x_1 + h_2)(T+t)^{-\lambda_2}$, $\theta_i = x_i(T+t)^{-\lambda_2}$, ($i=2, \dots, N$), $T > 0$, va $(\varphi(\xi), \phi(\eta))$ funksiyalar quyidagi masalaning yechimlari hisoblanadi

$$\begin{cases} \xi^{1-N} \frac{d}{d\xi} \left(\xi^{N-1} \left| \frac{d\varphi^{m_1}}{d\xi} \right|^{p_1-2} \frac{d\varphi^{m_1}}{d\xi} \right) + \lambda_1 \xi \frac{d\varphi}{d\xi} + \alpha_1 \varphi = 0, \\ \eta^{1-N} \frac{d}{d\eta} \left(\eta^{N-1} \left| \frac{d\phi^{m_1}}{d\eta} \right|^{p_2-2} \frac{d\phi^{m_1}}{d\eta} \right) + \lambda_2 \eta \frac{d\phi}{d\eta} + \alpha_2 \phi = 0, \end{cases} \quad (12)$$

$$\left\{ \begin{array}{l} - \left| \frac{d\varphi^{m_1}}{d\zeta_1} \right|^{p_1-2} \frac{d\varphi^{m_1}}{d\zeta_1} \Big|_{\zeta_1=h_1} = \varphi^{\beta_1} \phi^{q_1}, \\ - \left| \frac{d\phi^{m_1}}{d\theta_1} \right|^{p_2-2} \frac{d\phi^{m_1}}{d\theta_1} \Big|_{\theta_1=h_2} = \varphi^{\beta_2} \phi^{q_2}. \end{array} \right. \quad (13)$$

Quyidagi funksiyalarni qaraymiz

$$\tilde{\varphi}(\xi) = \left(a_1 - b_1 \xi^{\frac{p_1}{p_1-1}} \right)^{\frac{p_1-1}{m_1(p_1-1)-1}}, \quad \tilde{\phi}(\eta) = \left(a_2 - b_2 \eta^{\frac{p_2}{p_2-1}} \right)^{\frac{p_2-1}{m_2(p_2-1)-1}}, \quad (14)$$

bu yerda $a_i > 0 (i=1,2)$, $b_1 = \frac{m_1(p_1-1)-1}{m_1 p_1} \lambda_1^{\frac{1}{p_1-1}} > 0$, $b_2 = \frac{m_2(p_2-1)-1}{m_2 p_2} \lambda_2^{\frac{1}{p_2-1}} > 0$.

10-teorema. (12),(13) sistemaning kompakt yurituvchili yechimi quyidagi asimptotikaga ega: $\begin{cases} \varphi(\xi) = \tilde{\varphi}(\xi)(1+o(1)), \\ \phi(\eta) = \tilde{\phi}(\eta)(1+o(1)), \end{cases} \xi \rightarrow (a_1/b_1)^{\frac{p_1-1}{p_1}}, \eta \rightarrow (a_2/b_2)^{\frac{p_2-1}{p_2}}$,

bo'lganda, bu yerda $\tilde{\varphi}(\xi), \tilde{\phi}(\eta)$ (14) da belgilangan.

Bundan tashqari, ushbu paragrafda chekli ayirmali usul asosida sonli sxemalar ishlab chiqilgan. Bu holda tenglamalar fazoviy koordinata bo'yicha ikkinchi tartibli aniqlikda va vaqt bo'yicha birinchi tartibli aniqlikda approksimatsiya qilindi. Iteratsion jarayonni hosil qilishda, iteratsiyaning ichki qadamlarida tugunlardagi funksiya qiymatlari haydash usuli yordamida hisoblangan. Bunday nohiziqli masalalarni sonli yechishdagi asosiy qiyinchilik iteratsion jarayon uchun mos keluvchi boshlang'ich yaqinlashishni tanlash hisoblanadi. Shuning uchun konkret masalani yechish jarayonida izlanayotgan yechimning xarakterli xususiyatlarini aks ettiruvchi va nohiziqli masalalarni sifat xossalari tahlili asosida olinadigan funksiyalardan foydalaniladi. Mazkur muammo sonli parametrlarning turli qiymatlariga muvofiq asimptotik formulalarni tanlash orqali hal qilinadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Nohiziqli chegaraviy shartlar va manbaga ega kross-diffuziyali modellarda issiqlik–namlik almashinuvi jarayonlari xususiyati”** deb nomlanib unda nohiziqli chegaraviy va manba bilan berilgan kross-diffuziyaga ega issiqlik-namlik almashinuvi jarayonini ifodalovchi matematik model ishlab chiqilgan.

2.1 paragrafda quyidagi tenlamalar sistemasining yechimlari xususiyatlarini ko'rib chiqamiz

$$\frac{\partial u}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(v^{m_1-1} \frac{\partial u}{\partial x} \right) + u^{m_2}, \quad \frac{\partial v}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(u^{m_2-1} \frac{\partial v}{\partial x} \right) + v^{m_1}, \quad x \in R_+, t > 0, \quad (15)$$

$$-v^{m_1-1} \frac{\partial u}{\partial x}(0,t) = u^{q_1}(0,t), \quad -u^{m_2-1} \frac{\partial v}{\partial x}(0,t) = v^{q_2}(0,t), \quad t > 0, \quad (16)$$

$$u(x,0) = u_0(x), \quad v(x,0) = v_0(x), \quad x \in R_+, \quad (17)$$

bu yerda $m_i \geq 1$, $q_i > 0 (i=1,2)$, R_+ da $u_0(x)$ va $v_0(x)$ kompakt yurituvchili, musbat uzluksiz funktsiyalar, $u_0(x)$ issiqlik tarqalishi, $v_0(x)$ namlik tarqalishidir.

Birinchi bobdagi 1-10 teoremlardagi yondoshuvlar asosida (15)-(17) masala uchun quyidagi natijalar kelib chiqadi.

Agar $q_1 \leq 1, q_2 \leq 1$ bo'lsa, u holda (15)-(17) masalaning har qanday yechimi global bo'ladi.

$q_1 > 1, q_2 > 1$ bo'lsin, u holda (15)-(17) masalaning har qanday yechimi yetarlicha katta boshlang'ich shartlarda chegaralanmagan (blow-up) bo'ladi.

$q_1 > m_2 + 1, q_2 > m_1 + 1$ va boshlang'ich ma'lumotlar yetarlicha kichik bo'lsa, u holda (15)-(17) masalaning har qanday yechimi global bo'ladi.

2.2 paragrafda (15)-(17) masalaning avtomodel yechimlari asimptotikasini topishga va sonli modellashtirishga bag'ishlangan. (15) sistemani quyidagi ko'rinishdagi kompakt yurituvchili avtomodel yechimini qaraymiz

$$\underline{u}(x,t) = (T+t)^{-\alpha_1} f(\xi), \underline{v}(x,t) = (T+t)^{-\alpha_2} \varphi(\xi), \xi = x(T+t)^{-\beta} \quad (18)$$

bu yerda $T > 0, \beta = \frac{q_1 - m_2}{3(m_2 - 1)} = \frac{q_2 - m_1}{3(m_1 - 1)}, \alpha_1 = \frac{1 - 2\beta}{m_2 - 1}, \alpha_2 = \frac{1 - 2\beta}{m_1 - 1}$ va

$(\varphi(\xi), \phi(\xi))$ funksiyalari quyidagi masalaning yechimi hisoblanadi

$$\begin{cases} \frac{d}{d\xi} \left(\varphi^{m_1-1} \frac{df}{d\xi} \right) + \beta \xi \frac{df}{d\xi} + \alpha_1 f + f^{m_2} = 0, \\ \frac{d}{d\xi} \left(f^{m_2-1} \frac{d\varphi}{d\xi} \right) + \beta \xi \frac{d\varphi}{d\xi} + \alpha_2 \varphi + \varphi^{m_1} = 0, \end{cases} \quad (19)$$

$$\begin{cases} -\varphi^{m_1-1} \frac{df}{d\xi}(0) = f^{q_1}(0), \\ -f^{m_2-1} \frac{d\varphi}{d\xi}(0) = \varphi^{q_2}(0). \end{cases} \quad (20)$$

Quyidagi funksiyalarni qaraymiz

$$\tilde{f}(\xi) = (a - \xi^2)^{\frac{1}{m_2-1}}, \tilde{\varphi}(\xi) = (a - \xi^2)^{\frac{1}{m_1-1}}, \quad (21)$$

bu yerda $a > 0, c_1 = \left(\frac{\beta(m_2 - 1)}{2} \right)^{1/(m_1-1)}, c_2 = \left(\frac{\beta(m_1 - 1)}{2} \right)^{1/(m_2-1)}$ (19) tenglamalar

sistemasi $\xi \rightarrow \sqrt{a}$ da kompakt yurituvchili quyidagi asimptotikaga ega bo'lishi kelib chiqadi $f(\xi) \simeq c_1 \tilde{f}(\xi)(1 + o(1)), \varphi(\xi) \simeq c_2 \tilde{\varphi}(\xi)(1 + o(1))$. (22)

§2.3 da (15)-(17) masala uchun ayirmali sxemalar ishlab chiqilgan va hisoblash eksperimenti o'tkazilgan. Hisoblash uchun $h=0.05$ qadam tanlangan, tugunlar soni $N=2500$ ta hamda iteratsiya aniqligi sifatida $\varepsilon = 10^{-3}$ olingan. Hisoblash $t=2$ gacha $\tau=0.02$ qadam bilan amalga oshirilgan. Iteratsiya jarayoni uchun boshlang'ich yaqinlashish sifatida (21) va (22) formulalardan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida **“Issiqlik va namlik almashinuvi masalalarida o'zgaruvchan zichlikka ega kross-diffuziya sistemasini sonli modellashtirish va hisoblash algoritmlari”** ishlab chiqilgan matematik model

kross-diffuziyaga ega issiqlik-namlik almashinuvi jarayonida o'zgaruvchan zichlikni hisobga olgan holda sifat tahlili va qaralayotgan masalani samarali sonli yechish algoritmlari ishlab chiqilgan.

Birinchi paragrafda kross-diffuziya ega o'zgaruvchan zichlik va nohiziqli chegaraviy sharti bilan berilgan issiqlik-namlik tarqalishi masalalari avtomodel yechimlarining tahlili o'rganiladi. Berilgan $Q = \{(x,t) | x \in \mathbb{R}_+, t > 0\}$ sohada nohiziqli Neyman chegaraviy shartlari bilan berilgan kross-diffuziya sistemasini ko'rib chiqamiz:

$$\rho(x) \frac{\partial u}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(\nu^{m_1-1} \left| \frac{\partial u}{\partial x} \right|^{p-2} \frac{\partial u}{\partial x} \right), \rho(x) \frac{\partial \nu}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(u^{m_2-1} \left| \frac{\partial \nu}{\partial x} \right|^{p-2} \frac{\partial \nu}{\partial x} \right), (x,t) \in Q; \quad (23)$$

$$-\nu^{m_1-1} \left| \frac{\partial u}{\partial x} \right|^{p-2} \frac{\partial u}{\partial x} \Big|_{x=0} = u^{q_1}(0,t), -u^{m_2-1} \left| \frac{\partial \nu}{\partial x} \right|^{p-2} \frac{\partial \nu}{\partial x} \Big|_{x=0} = \nu^{q_2}(0,t), t > 0; \quad (24)$$

$$u(x,0) = u_0(x), \nu(x,0) = \nu_0(x), x \in \mathbb{R}_+, \quad (25)$$

bu yerda $\rho(x) = (1+|x|)^n$, $m_i \geq 1$, $p > 2$, $n, q_i > 0$.

Birinchi bobdagi 1-10 teoremlardagi yondoshuvlar asosida (23)-(25) masala uchun quyidagi natijalar kelib chiqadi.

Aytaylik $q_i \leq 1$, ($i=1,2$) bo'lsin, u holda (23)-(25) masalalarning har qanday notrivial yechimi vaqt bo'yicha global bo'ladi.

$q_i > m_{3-i} + p - 1$ va $\min\{\alpha(n+1)q_i\} \geq 1$, ($i=1,2$) bo'lsin, u holda (23)-(25) masalaning har qanday notrivial yechimi yetarlicha kichik boshlang'ich shartlarda vaqt bo'yicha global bo'ladi.

Agar $\min\{q_i, \lambda(n+1)q_i\} \geq 1$, ($i=1,2$) shartlari bajarilsa, u holda (23)-(25) masalaning har qanday yechimi yetarlicha katta boshlang'ich shartlarda cheklangan vaqt ichida chegaralanmagan bo'ladi (blow-up).

bu yerda

$$\lambda = \frac{(q_i - 1)(m_i - q_{3-i}) + (p - 2)(q_{3-i} - 1)}{(n + 1)[(p - 2)(q_{3-i} - 1) + (m_i - q_{3-i})(q_i - 1)] - (p - 1)(q_i - 1)(q_{3-i} - 1)} > 0.$$

Ikkinchi paragrafda (23)-(25) masalaning avtomodel yechimi asimptotikasini topamiz buning uchun (23) tenglamalar sistemasini quyidagi shakldagi kompakt yurituvchili cheklangan avtomodel yechimlarini qaraymiz

$$\underline{u}(x,t) = (T+t)^{-\alpha_1} \varphi(\xi), \underline{\nu}(x,t) = (T+t)^{-\alpha_2} \phi(\xi), \xi = (1+x)(T+t)^{-\beta} \quad (26)$$

bu yerda $T > 0$, ($i=1,2$)

$$\beta = \frac{(q_i - 1)(q_{3-i} - 1) - (q_i - 1)(m_i - 1) - (q_{3-i} - 1)(p - 2)}{(q_i - 1)(q_{3-i} - 1)(p + n) - (q_i - 1)(m_i - 1)(1 + n) - (q_{3-i} - 1)(p - 2)(1 + n)},$$

$$\alpha_1 = \frac{1 - \beta(1 + n)}{q_1 - 1}, \alpha_2 = \frac{1 - \beta(1 + n)}{q_2 - 1}.$$

$$\begin{cases} \frac{d}{d\xi} \left(\phi^{m_1-1} \left| \frac{d\phi}{d\xi} \right|^{p-2} \frac{d\phi}{d\xi} \right) + \beta \xi^{\alpha_1} \frac{d\phi}{d\xi} + \alpha_1 \xi^{\alpha_1} \phi = 0, \\ \frac{d}{d\xi} \left(\phi^{m_2-1} \left| \frac{d\phi}{d\xi} \right|^{p-2} \frac{d\phi}{d\xi} \right) + \beta \xi^{\alpha_2} \frac{d\phi}{d\xi} + \alpha_2 \xi^{\alpha_2} \phi = 0, \end{cases} \quad (27)$$

$$\begin{cases} \phi^{m_1-1} \left| \frac{d\phi}{d\xi} \right|^{p-2} \frac{d\phi}{d\xi} \Big|_{\xi=0} = \phi^{q_1}(0), \\ \phi^{m_2-1} \left| \frac{d\phi}{d\xi} \right|^{p-2} \frac{d\phi}{d\xi} \Big|_{\xi=0} = \phi^{q_2}(0). \end{cases} \quad (28)$$

Endi, quyidagi funksiyalarni ko‘rib chiqamiz

$$\begin{cases} \tilde{\varphi}(\xi) = A_1 (a - \xi^\gamma)^{\gamma_1}, \\ \tilde{\phi}(\xi) = A_2 (a - \xi^\gamma)^{\gamma_2}, \end{cases} \quad (29)$$

bu yerda $\gamma = \frac{p+n}{p-1}$, $\gamma_i = \frac{(p-1)(p-1-m_i)}{(p-2)^2 - (m_i-1)(m_{3-i}-1)}$, $a > 0$, $c_i = \left(\frac{\gamma \beta \operatorname{sgn}(-\gamma_i)}{\frac{n+1}{\gamma} |\gamma_i|^{p-1}} \right)^{\frac{1}{p-1}}$

$P > \max\{m_i, m_{3-i}\} + 1$, (27) tenglamalar sistemasi $\xi \rightarrow a^{\frac{p-1}{p+n}}$ da kompakt yurituvchili

$$\begin{cases} \varphi(\xi) \simeq c_1 \tilde{\varphi}(\xi) (1 + o(1)), \\ \phi(\xi) \simeq c_2 \tilde{\phi}(\xi) (1 + o(1)), \end{cases} \quad (30)$$

yechim asimptotikaga ega bo‘ladi.

Uchinchi paragrafda (23)-(25) masalaning sonli yechimlari keltirilgan bo‘lib ularning natijalari grafik ko‘rinishda tasvirlangan.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobida **“Nochiziqli chegaraviy shartlar bilan berilgan kross-diffuziyaga ega issiqlik–namlik almashinuvi jarayonining ko‘p o‘lchovli matematik modeli”** ko‘p o‘lchovli kross-diffuziya masalalarining sifat tahlili hamda masalani samarali sonli yechish algoritmi yoritilgan.

§4.1.da nochiziqli chegaraviy shartlar bilan berilgan ko‘p o‘lchovli kross-diffuziyaga ega issiqlik-namlik almashinuvi jarayoni modeli avtomodel tahlili keltirilgan

$$\frac{\partial u}{\partial t} = \nabla(v^{m_1-1} \nabla u), \frac{\partial v}{\partial t} = \nabla(u^{m_2-1} \nabla v), \quad x \in R_+^N, \quad t > 0, \quad (31)$$

$$-v^{m_1-1} \frac{\partial u}{\partial x_1}(0, t) = u^{q_1}(0, t), -u^{m_2-1} \frac{\partial v}{\partial x_1}(0, t) = v^{q_2}(0, t), \quad x_1 = 0, \quad t > 0, \quad (32)$$

$$u(x, 0) = u_0(x), v(x, 0) = v_0(x), \quad x \in R_+^N, \quad (33)$$

bu yerda $R_+^N = \{(x_1, x') \mid x' \in R^{N-1}, x_1 > 0\}$, $m_i > 1$, $q_i > 0$ ($i=1,2$), R_+^N da $u_0(x)$ va

$v_0(x)$ - kompakt yurituvchili manfiy bo‘lmagan uzluksiz funksiyalar.

Birinchi bobdagi 1-10 teoremlardagi yondoshuvlar asosida (31)-(33) masala uchun quyidagi natijalar kelib chiqadi.

Agar $q_1 \leq 1, q_2 \leq 1$ shart bajarilsa (31)-(33) masalalarning har qanday yechimi global hisoblanadi.

Agar $q_1 > \frac{m_2 + 1}{2}, q_2 > \frac{m_1 + 1}{2}$ bo‘lsa, u holda (31)-(33) masalaning har qanday yechimi yetarlicha katta boshlang‘ich shartlarda chegaralanmagan bo‘ladi.

Agar $q_1 > m_2 + \frac{1}{N}$ va $q_2 > m_1 + \frac{1}{N}$ bo‘lib, boshlang‘ich shartlar yetarlicha kichik tanlansa, u holda (31)-(33) masalaning yechimi barcha yechimlari chegaralangan vaqt oralig‘ida global bo‘ladi.

